

<https://buxdu.uz>



ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL



URGANCH
DAVLAT
UNIVERSITETI

2023
12/2

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

12/2.2023

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2023

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Sayfulloyeva Gulnoz Sayfulloyevna. Senzurlanishning umumlashgan modelidagi approksimatsiya teoremlari.....	3
Gulyamov Gafur, Majidova Gulnoza Nurmuxamedovna, Feruza Muxitdinova Rustam qizi. Magnit maydondagi p-n o'tishli diodlarning xarakteristikalari.....	7

FALSAFA

Axmedov Sohib Sayimovich. Jaloliddin Rumiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolat va tenglik masalalari.....	12
Axatov Lutfillo Karamatilloyevich. Abdurahmon Jomiy asarlarida tasavvuf va ilm tahlili.....	15
Hakimov Akmaljon Mirzag'aniyevich. Jamiyat taraqqiyotini o'rganishda sivilizatsion yondashuvning metodologik ahamiyati.....	17
Mirzayeva Nigina Olimovna. Oila davlat va jamiyat barqarorligining asosi sifatida.....	20

TILSHUNOSLIK

Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich. Ilmiy-ommabop matnning lisoniy xususiyatlari.....	24
Musayev Abduvali. Jargon, argo va sleng terminlarining farqli xususiyatlari.....	27
Safarova Umida Aliaskarovna. Kontaminatsiyalashgan so'zlarning rasmiy modellarining leksik va grammatic xususiyatlari.....	32
Kudjayeva Ra'nohon Mitalibjonovna. O'zbek va ingliz tili izohli lug'atlarida omonimlar va polisemiyasining berilish masalasi.....	35
Rasulova Munojat Akmaljonovna. O'zbek va ingliz tillaridagi dramatik diskursda metaforalarning lingvomadaniy tasnifi.....	40
Салахидинова Зилола Одилжоновна. Репрезентация основных типов фразеологического варьирования во «фразеологическом словаре русского языка».....	42

ADABIYOTSHUNOSLIK

Boltaboyev Omonboy Yo'ldosh o'g'li. 80-yillar o'zbek adabiy tanqidchiligidagi estetik tafakkur yangilanishi.....	46
Karamova Shohida. Hayotiy tafsilotlar va ijodkor uslubi.....	48
Kurbaniyazov Maxsud. "Qisasi Rabg'uziy" asarida janrlararo aloqalar.....	50
Bayniyazov Azatbay Tursinbayevich. Badiiyat va tarixiy haqiqat qiyosi.....	53
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna. Epos hamda marosim munosabatining qadimiyligi va an'anaviyligi.....	56
Jamoliddinov Mirxojiddin G'iyosiddinovich. Abdulla Qodiriy – milliy uyg'onish davri satirasining yangi ijodkori.....	59
Qarshibayeva Uljan Davirovna. Balzakning "Sag'ri teri tilsimi" romanidagi rafael obrazi talqini.....	61

JURNALISTIKA

Karimov Amrullo Ashurovich. Telemahsulotlarning auditoriyaga ta'siri masalalari.....	65
---	----

PEDAGOGIKA

Barakayev Fazliddin Ismatovich. Raqamli ta'limgiz resurslari va ularning oliy ta'limgiz muassasalaridagi ahamiyati.....	68
G'oibova Nargiza Ziyoxonovna. Fizika darslarida bo'lajak muhandislarning texnik qobiliyatlarini takomillashtirishda foydalilanildigan usullar tahlili.....	72
Karimov Muxammadraxim Salimjon o'g'li. Axborot xavfsizligini ta'minlash va ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy mada-niyatni yoshlari ongiga singdirishda mustahkam ta'limgiz-tarbiya tizimining o'rni.....	75
Fayzullayev Abduaizim Kuchkarali o'g'li. Pedagogik kvalimetriya ko'rsatkichlari asosida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlash.....	78
Yadgarov Baxodir Jumatovich. Uzunlikkha sakrovchilar texnikasini takomillashtirishning zamonaviy uslub va shakllari.....	80
Saliyeva Zarrina Ilyomovna. Gapirish ko'nikmasini mustaqil ta'limgizda baholash metodologiyasi.....	84
Matvapayev Azizbek. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy va uslubiy jihatlari.....	87
Raximova Farangiz Abduvaliyevna. Nofilologik yo'nalishda ingliz tili darslarini tashkillashtirishning eklektik metodi.....	90
Abdullahov Alibek Qodiraliyevich. Informatika o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishda xorijiy tajribadan foy-dalanish.....	92

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti. Matyoqubov tarj. T., “O‘zbekiston”, 2006, 58-bet.
2. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti. Matyoqubov tarj. T., “O‘zbekiston”, 2006, 63-bet.
3. Erkin Samandar. “Sulton Jaloliddin”. Tarixiy roman. T., G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2007, 284-bet.
4. <https://n.ziyouz.com/>

Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna (Buxoro davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasini o‘qituvchisi, PhD; maxbuba013@gmail.com)

EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI

Annotatsiya. Maqolada marosim va doston munosabatlari, marosimlarning arxaik-badiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo bo‘lgan bu lirk merosining badiiy tili nuqtayi nazaridan o‘rganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf-odatlari, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

Аннотация. В статье исследование соотношения обряда и эпоса послужило для архаико-художественного выражения обряда, его художественно-эстетического и поэтического мышления с точки зрения художественного языка этого лирического наследия, что является достойным источником для глубокого понимания национальной культуры, быта и традиций, ценностей нашего народа.

Annotation. In the article, the study of the relationship between ritual and epic, the archaic-artistic expression of the ritual, its artistic, aesthetic and poetic thinking from the point of view of the artistic language of this lyrical heritage is a worthy source for a deep understanding of the national culture, life and traditions, the values of our people. It is believed that what did it do.

Kalit so‘zlar: xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

Ключевые слова: народный эпос, фольклор, фольклористика, любовь, национальная культура, обряд, традиция, соотношение обряда и эпоса.

Key words: folk epic, folklore, folkloristics, love, national culture, ritual, tradition, relationship between ritual and epic.

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalqi qadimiya qahramonlik eposining yorqin namunalaridan biridir. Unda Alpomishning o‘z yaqinlari tinchligi, baxtu saodati yo‘lida ko‘rsatgan qahramonliklari madh etiladi. Shu bilan birga, ushbu dostonda jamiyat va inson hayoti masalalari o‘ziga xos reallikda – qahramonlik va go‘zallilik haqidagi xalq ideallari doirasida kuyylanadi.

“Alpomish” dostoni turkiy xalqlar patriarxat hayotining o‘ziga xos poetik ko‘zgusidir. Bu doston bir qancha turkiy va ularga yaqin yashagan ayrim turkiy bo‘limgan xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Uning o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holida; tojik, tatar, boshqird, O‘rtta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O‘rtta asr o‘g‘iz eposining muhim yodgorligi “Kitobi Dada Qo‘rqu” tarkibidagi “Bamsi Bayrak” asari o‘zining sujeti va kompozitsion qurilishi jihatidan “Alpomish” dostoniga juda ham yaqin turadi.

V.M.Jirmunskiy o‘zining “Turk qahramonlik eposi” kitobida Alpomish mazmunidagi asarning qo‘ng‘iroq, o‘g‘iz, qipchoq, oltoy versiyalari mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqi orasida ikki (o‘zbek va qoraqalpoq) versiyada va ko‘plab variantlarda juda keng tarqalgan. O‘tgan asrda uning variantlari o‘ttizga yaqin xalq baxshisidan qirqqa yaqin variantda yozib olingan. Uning to‘la variantlari Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Berdi baxshi, Bo‘ri Sodiq o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Umir Safar o‘g‘li kabi yetakchi dostonchi baxshilardan yozib olingan. Shular orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksagi atoqli xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan nusxa hisoblanadi. Unda shoirning yuksak dostonchilik mahorati to‘la namoyon bo‘lgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li “Alpomish” dostonini butun umr bo‘yi kuylab kelgan. Atoqli shoir Hamid Olimjonning obrazli iborasi bilan aytganda, bu doston uning shoirlik beshigi bo‘lgan.

Sevimli yor, oila va shu bilan bog‘liq ravishda yangi tipdagi urug‘ birligi uchun kurash hamda bunga to‘sinqinlik qiluvchi barcha qora kuchlarni yengish “Alpomish” dostonining asosiy g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi.

Dostonda xalqimizning qahramonlik haqidagi g‘oyalari, mardlik tuyg‘usi yorqin tasvirlanadi. Dostonda yorga erishish uchun mard bo‘lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g‘oya bo‘rtib turadi:

*Dushman ko‘rsam, kesib bag‘rin tuzlayman,
Aslim sherman, o‘zim yo‘lbars izlayman.¹*

Dostonda qahramonlik, jasurlikni ulug‘lash, mardlik tuyg‘ulari vatanparvarlik g‘oyasi bilan uzviy bog‘langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli, Boysun-Qo‘ng‘irot diyoril bilan mahkam bog‘langandir. Ular qaerda bo‘lmasinlar, shu el, shu diyorning g‘am-alamiga sherik bo‘ladilar, shu el, shu diyor sog‘inchi bilan yashaydilar. Doston qahramonlarining o‘z qabilasi, xalqi va yurtiga bo‘lgan vatanparvarlik hislari, xususan, dostonning ikkinchi qismida juda ta’sirli tasvirlangan. Bu hissiyot qahramonning tutqinlik davrida g‘oz orqali vataniga salom yo‘llashida; Barchin, Qaldirk‘och, Yodgorlar ning hijron alamlari tasvirida, qahramonning yo‘ldagi uchrashuvlari epizodlarida yanada yorqin aks etgan. Umr bo‘yi tug‘ilib o‘sgan yurtini, xalqini sevgan Alpomishdagi bu hissiyot yetti yillik asirlikdan keyin ona tuproqqa qadam qo‘yganda yanada yuqori nuqtaga ko‘tariladi, vatani, eli haqida turli xayollarga boradi. Dostonda elu yurtga muhabbat motivlari urug‘ birligi g‘oyasi bilan birlashib ketadi. Ajralish qabila a’zolari boshiga og‘ir kulfatlar keltiradi. Barchin, Qaldirk‘och, hatto Boysarining o‘zi ham o‘zga mamlakatda xorzor bo‘lishlarini takror-takror aytadilar. Dostonning har ikkala qismida ham Alpomishning Barchinga uylandishi qo‘ng‘irot urug‘ining yangidan birlashishiga olib keladi.

“Alpomish” dostonining bosh qahramoni sahroyi bahodir, qo‘ng‘irot urug‘ining umidi va ishonchi Hakimbek – Alpomishdir. U mehnatkash xalqning qahramonlik kuchlarini o‘zida mujassamlashtirgan, yovuzlik va yomonlikning ashaddiy dushmani, el-yurt farovonligi yo‘lida mardliklar ko‘rsata olgan bahodir, xalq eposining quyma obrazidir.

Alpomish yurtiga qaytgach, kamsitilgan ota-onasiga hamdardlik qiladi, xo‘rlangan o‘g‘li Yodgorning boshini silaydi. Ultontozga xushomadgo‘y bakovul va oshpazlarning ta’zirini beradi. O‘zining kuch-qudratini, Barchinga hamda oilasiga sodiqligini namoyish qiladi.

Alpomishning Ultontozga qarshi kurashi qahramonning uzoq muddatli tutqunlik davrida o‘z vatanida hokimiyatini zo‘rlik bilan tortib olib, xotini Barchinni olmoqchi bo‘lgan zo‘ravon shohga qarshi o‘z hokimiysi, o‘z oilasi uchun olib borgan qahramonlik kurashidir. Alpomishning yori Barchin, singlisi Qaldirk‘och, do‘siti Qorajon, ota-onasi va qaynatasiga nisbatan iliq munosabatlarda, mashhur yilqichi, qadrdoni va tarbiyachisi Qultoy bilan ota-bola, cho‘pon Qayqubod bilan do‘sit tutinishi tasvirida uning chin insoniy sifatlari yaqqol namoyon bo‘lgan.

Dostonning yetakchi obrazlaridan yana biri Barchindir. Barchin o‘zbek eposida har tomonlama mu-kammal ishlangan ayol obrazi hisoblanadi. Vatan va oilani sevish, xalqqa va qarindoshlariga hurmat, mustaqillik va jasorat bu obrazning ichki mazmunini tashkil qiladi. U oqila, tadbirli ayol sifatida ijtimoiy hayotda erkak bilan ayolni teng deb biladi. Dushmanlarning “qirq mingini bir deb sanab qirishga” tayyor turgan jasur Barchin obrazida qahramonlik eposlariga xos botir qiz (“alp qiz”) haqidagi an‘anaviy tushuncha ham o‘z ifodasini topgan. Undagi jasurlik, mardlik va dovyuraklik, o‘z kuch-qudratiga ishonish Toychixon alplari zo‘rlik bilan olib ketmoqchi bo‘lgan epizodlarda yaqqol gavdalananadi. Uning jismoniy salohiyati qalmoq pahlavoni Ko‘kaman bilan yakkama-yakka olishuv lavhasida mahorat bilan kuyylanadi.

Umuman aytganda, nikoh tahdidiga uchragan qiz (ayol) obrazi va uning taqdiri masalasi jahon eposchiligiga ham xosdir. Aynan buning yorqin dalilini yunon rapsodi Gomerining “Odisseya” dostonida Odiseyning xotini go‘zal va oqila Penelopa taqdirida kuzatish mumkin. Dostonda Alpomish bilan Qorajon o‘rtasidagi do‘slik haqqoniy va hayajonln epizodlarda san‘atkorona kuch bilan tasvirlangan, katta insoniy do‘slik darajasiga ko‘tarilgan. Shunday qilib, Qorajon obrazida turli el-elatlar orasidagi do‘slik va qar-doshlik kuylangan, oliyanob insoniy fazilatlar – do‘siga sadoqat, va’daga vafo va qat’iylik ulug‘langan.

“Alpomish” dostonida nikohning ikki xil tartibi ifoda etilgan.

1. Nikohning ekzogamik va endogamik tartibi mavjud. Ekzogamiya (qadimgi yunoncha εξω, exo – tashqarida+γάμος /gamos) – begona bilan nikohlanish ma’nosini bildiradi. Ammo “Alpomish” dostonida nikohning endogamiya turi tasviri keltirilgan. Endogamiya (qadimgi yunoncha endo – ichkarida,+γάμος /gamos) – yaqin qarindoshlar, urug‘doshlar, nasl-nasab, fratriyalar yoki mahalliy jamoa a’zolari o‘rtasidagi nikoh munosabatlarini anglatadi. “Alpomish” dostonida bu 14 yoshli Alpomishning, dastlab, amakisining qizi bo‘lgan Barchinga uylandishi xohlamasligi, biroq keyin rozi bo‘lishi va u bilan nikohlanishi, farzandli bo‘lib, nasl-nasabini davom ettirishi misolida talqin qilingan. Dostonda endogam nikoh shakli (qarindosh-

¹ Алпомиш. 209-бет.

lar, aka-uka (Boybo'ri bilan Boysari)ning bolalari (Hakimbek va Barchin) orasidagi nikoh asosiy o'rinni tutadi. Bu esa tarixiy-etnografik ahamiyatga ega voqeasi hisoblanadi.

"Alpomish" dostonida kuyovning turli xil sinovlardan o'tishi, kuyov va kelin tomonning alohida-alohida va birgalikda tasvirlanishi doston yaratilgan ijtimoiy davr voqeliklari, sotsial munosabatlari mohiyati bilan bog'liqidir. Aslida, hayotda endogamik nikohdan ekzogamiyaga o'tishning uch sababi mavjudligi qayd qilinadi. Bular quyidagilardir: a) qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikoh tug'ilajak bolalar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki yana boshqa zararli oqibatlari tufayli undan qochish zarurati; b) ijtimoiy aloqlarni yanada kengaytirish va boshqa jamoalardan qiz olib kelish, ular bilan quda-anda bo'lish hisobiga ular bilan munosabatlarni o'rnatish istagi; d) jamoada, oilada ijtimoiy tinchlikni o'rnatish ehtiyoji.¹

2. Nikohning matrilokal nikoh tartibi. Matrilokal (lotincha mater – ona va locus – joy degani) nikoh bu – nikohdan so'ng ko'chib o'tish shakllaridan biri sifatida matriarxat davrda paydo bo'lgan.² Matri-lokal nikohda er xotinning jamoasiga ko'chib o'tib, ular xotin jamoasida birga yashashgan. Hozir ham kuyovning kelin uyiga kelib ichkuyov sifatida yashashi saqlanib qolgan. Ammo "Alpomish" dostonida nikohning bu turi tasvirlanmagan.

Epos bilan bog'liq umumiyligi qonuniyatlarda ko'proq quyidagilarga amal qilinadi:

1. Xalq hayotiy tajribalari va o'lmas an'analarini tasvirlashga epik an'ana sifatida yondashiladi.
2. Epik idealizatsiyaga muvofiq, tasvirga olingan narsalar ideal tarzda taqdim etiladi.
3. Eposda tavsiflanayotgan yoki obrazlantirilayotgan har bir hodisa epik an'ana, epik matn tuzish taimoyillariga ko'ra tipiklik, barqarorlik, takrorlanuvchi (an'anaviy) tarzda beriladi.
4. Epik hikoya qilishda tasvirlanayotgan yoki tavsiflanayotgan voqeasi-hodisalar, obrazlar konvensiyaga (dinamik rivojlanishning epik norma shartlariga bo'yusunadi).

Ushbu qonuniyatlar eposdagi marosim motivlarini etnografik hamda folkloristik tavsiflar asosda o'r-ganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tasviri va talqini funksional xususiyatga ega bo'lib, bizningcha, ikkita vazifa bajarib keladi:

- a) xalq marosimlari haqidagi ma'lumotlarni avloddan avlodga taqdim qiladi;
- b) xalq marosimlarining tuzilishi, maqsadi, mazmun-mohiyati bo'yicha bilimlarni ongda shakllantirish va umumlashtirishga xizmat etadi.

Bunda marosimlarning tasviri nima natijaga qaratilgani muhim hisoblanadi. U orqali qanday g'oya ilgari surilayotgani kishini o'ylantiradi. Shuning uchun eposdagi marosimga munosabat bir necha xilda kechada:

- a) tarbiyaviy o'git izlash;
- b) sujetdagi o'rni, vaziyati, poetik vazifasini baholash;
- d) genezisini, sujetga kiritilish sabab va oqibatiga qiziqish kabi.

Eposdagi marosim sujetdagi o'rni va mavqeyiga ko'ra, ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- a) sujetni harakatga keltiruvchi marosim motivlari;
- b) sujetni harakatga keltirmaydigan marosim motivlari;
- d) berilgan sujet holatidan tashqarida tavsiflangan marosim motivlari.

B.N.Putilov aytganidek, eposdagi marosim hech qachon shunchaki obyektiv ma'noga ega bo'lgan qandaydir neytral harakat sifatida ko'rinxmaydi. U qahramonga yoki uning dushmaniga xizmat qiladi va shunga ko'ra, ifodada ramziy ma'noga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq ma'naviy xazinasidan o'rinni olgan aksariyat dostonlarda ma'lum bir marosim bilan bog'liq tasavvur-tushunchalarning izlari saqlanib qolganligi yoki muayyan bir marosimning o'tkazilishi badiiy tasvirlab berilganligi kuzatiladi. Bu esa doston (epos) va marosim munosabatini, ularning bog'liq jihatlarini o'rghanishga undaydi. "Alpomish" dostoni badiiy strukturasini shakllantirishda oilaviy-maishiy marosimlarning o'rniiga alohida e'tibor qaratilgan. Buni dostonidagi voqealar bayoni struktural jihatdan bevosita marosimlar mazmuni bilan uyg'un kelishi to'liq tasdiqlaydi. Marosim bilan bog'liq poetik aytimlarning, urf-odat va an'analarining epos sujetiga singdirilishi ularning avloddan avlodga o'tishini ta-minlash maqsadini ko'zlagan. Shundan eposlarning marosimlarda ijro etilishi, shu orqali ularning targ'ibini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu esa eposning marosimdagi o'rni va vazifasini belgilagan bosh omildir. "Alpomish" dostoni sujetidan juda ko'p oilaviy-maishiy marosimlar o'rinni olgan, ammo ularning hech biri batafsil tasvirlanmagan. Bundan ularning epos sujetini yuzaga keltirish uchun qo'llangani ayonlashadi. Doston sujetini to'liq anglash uchun o'zbek xalq marosimlarini, urf-odat va an'analarini yaxshi bilish talab

¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9E%D0%BA%D0%Z%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BC%D0%BE%D0%BC](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9E%D0%BA%D0%Z%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B0%D0%BC%D0%B8%D0%BC%D0%B0%D0%BC%D0%BE%D0%BC)

² <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/matrikal-nikoh-uz/>

etiladi. Aks holda, doston mazmunini to‘liq anglash iloji bo‘lmaydi. Xalqimiz taqdiri, vatanimiz tarixida yuz bergan muhim voqeа-hodisalar, ajdodlarimizning o‘z mustaqilligi, tinch va farovon hayot uchun kуrashi haqida hikoya qilishi, o‘z elini qadrlash, go‘zal urf-odatlaru o‘lmas an’analarga ergashish to‘g‘risida hikoya qiluvchi bu doston yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bugungi kunda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etishi bilan e’tiborga loyiq.

**Jamoliddinov Mirxojiddin G‘iyosiddinovich (QDPI dotsenti, p.f.n.)
ABDULLA QODIRIY – MILLIY UYG‘ONISH DAVRI SATIRASINING YANGI IJODKORI**

Annotatsiya. Jamiyat rivojida, kishilarining kundalik turmush tarzida satiraning roli beqiyos. Chunki taraqqiyotga to‘sinq bo‘layotgan dangasalik, boqimandalik, ishsizlik, savodsizlik va boshqa muammolar insonning tashqi qiyofasida, ichki siyratida namoyon bo‘ladigan axloqsizlik, tamagirlilik, sudxo ‘rlik va boshqa holatlarni satira orqali yo‘q qilish mumkin. Shu jihatdan adabiyotda kulgi san’ati satira va yumor qadimiylar tarixga egaligi yoritilgan.

Аннотация. В статье раскрыта ни с чем не сравнимая роль сатиры в развитии общества, в повседневной жизни людей. Потому что с помощью сатиры можно устранить лень, бедность, безработицу, неграмотность и другие проблемы, мешающие развитию, безнравственность, жадность, ростовщичество и другие состояния, проявляющиеся во внешности и внутреннем поведении человека. В этом отношении искусство смеха, сатиры и юмора имеет древнюю историю в литературе.

Annotation. In the article, the role of satire in the development of society, in the daily life of people is incomparable. Because laziness, poverty, unemployment, illiteracy, and other problems that hinder development, immorality, greed, usury, and other conditions that appear in a person's appearance and inner behavior can be eliminated through satire. In this respect, the art of laughter, satire and humor have an ancient history in the literature.

Kalit so‘zlar: jiddiy tanqid, hajviy tanqid, paremik, piching, kesatish, kinoya, tag ‘ofil, xarakter kulgisasi.

Ключевые слова: серьезная критика, юмористическая критика, паремия, намёк, подача, резко, аллегория, сарказм, делать вид, характер смех

Key words: serious criticism, humorous criticism, sarcasm, humor pitching, cutting, sarcasm, character laugh.

O‘zbek satirasining paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivoji uzoq tarixga borib taqaladi. Uni ilmiy o‘rganish bo‘yicha ko‘plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan. Jumladan, 30–40-yillarda yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda akademik Oybek, professor A.Sa’diy va M.Shayxzodalar ijodida Navoiyning satiraga munosabati, asarlaridagi “Satirik kulgi” haqida ayrim fikrlarini yozadilar.

Jumladan, A.Sa’diy: “Alohidha ta’kidlash zarurki, Navoiy, shubhasiz, o‘zbek adabiyotida badiiy satiraning ilk ijodkorlardan biridir. Xuddi, u o‘zbek adabiyotida satirik realizmga asos soldi va Turdi, Mahmur, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar uning izidan boradilar”, deb yozadi [1.77]. Satirada ijodkor yashagan muhit aks etadi. Hamda satira lirkada, epos va dramada ham yaratilishi mumkin. Haqqoniy,adolatli va to‘g‘ri aytilgan satira jamiyat taraqqiyoti va inson tarbiyasida komillik uchun xizmat qiladi.

20 -yillar adabiyotida ”Yangi jamiyatni qurish” yo‘lida Abdulla Qodiriy satiraning xalq og‘zaki ijodi jarayonida asrlardan asrlarga, avloddan avlodga o‘tib rivojlanib kelayotgan lof, askiya, parodiya janrlari va yozma adabiyot manbalariga suyangan holda, nazariy jihatdan o‘rganib, yuqori darajaga ko‘tardi. Adibning ”Kulgi haqida” (15-iyun 1926-yil), ”26-nchi yilda kulduruvchilarimiz” (1926-yil, 24-oktabr), ”Yozishg‘uchilarimizga” (“Mushtum”, 1926-yil, 17-son), ”O‘qish – o‘rganish” (“Sovet adabiyoti” (4), 1936, 3-son) va boshqa maqolalarida satira haqida ilmiy qarashlarini bayon etdi. Jumladan, ”Kulgulikning boshlanishi tarixi juda eskidir. Kulgulik insonlar bilan tug‘ilgan, uning boshqa xususiyatlari, ya’ni kamolot va ruhiy holatlari ila yondashdir. Shuningdek, biz, o‘zbeklarning kulguligimiz ham o‘z tarixini eskidan boshlaydi. Ammo yangi inqilobiy kulguligimiz o‘z tarixini Buyuk Oktyabrdan so‘ng yozdi... Kulgulik ham tug‘ulishda shaxsiy hangoma yo‘limingina o‘tab, takomil qoidasi bo‘yicha bu kungi holatga keldi”, deb yozadi [2.181].

Adib adabiyot dunyosida tanqidni ikkiga bo‘ladi. Jiddiy tanqid va hajviy tanqid. Jiddiy tanqid bahs qilingan masalalar sinfiy jamiyatga bog‘liq turmush tarzimizdagи kamchilaklar bo‘lib, uning sababchisi, vakillari yuqori tabaqa kishilaridir, deb ta’kidlaydi.

Shu jihatdan, u ommaviylik xususiyatidan yiroqroqdir. Buning uchun yozuvchida vatanparvarlik, jasurlik, fidoyilik, qo‘rqmaslik kabi fazilatlar bo‘lishi lozim (M.J.).